

# QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI  
1-SON

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**


**2023**  
VOLUME №1



**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI  
1-SON**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD  
VOLUME 1**

**ВЕСТНИК  
КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТ  
ВЫПУСК 1**



1/2023

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-elektron jurnali

#### Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

#### Bosh muharrir:

Sh.R.Ruziyev

#### Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

#### Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

#### Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2023

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

## Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	K. Konstantin	Factors and vector of the development of institutions in the sme sector of the national economy	3-7
2.	B. Khursanaliyev	The impact of population growth on the country's economic development	8-11
3.	N. Sharapova	Network analysis of social media research in entrepreneurship development	12-15
4.	M. Абдуллаев	Тенденции и перспективы развития сферы услуг в узбекистане	16-20
5.	Г. Карабаева	Стимулы развития малого бизнеса для повышения качества жизни населения	21-24
6.	A. Вахромов	Problems of the digitalization process in networks and sectors of the economy	25-28
7.	Sh. Dexkanov	Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish	29-34
8.	N. Karimova	Analysis of the current state of retail advertising: a systematic mapping study	35-38
9.	O. Исоев	Внедрение международных стандартов при исламском финансировании в узбекистане	39-42
10.	J. Nuritdinov, A. Abdullayev	O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi	43-47
11.	J. Qodirov	Davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalashning o'rni	48-50
12.	S. Rustamova	Korxonalarda qabul qilingan qarorlarni boshqaruv samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy matematik modellashirish	51-56
13.	A. Sattorov	Auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish jarayonida dalillarni to'plash ahamiyati va zaruriyati	57-60
14.	B. Turanboyev Sh. Nishonkulov	Does inflation significantly affect stock investments and their price?	61-64
15.	A. Xojayev	Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish yo'llari	65-68
16.	M. Xomidov	Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni	69-72
17.	N. Yuldasheva, A. Umarov, A. Abdullayev	Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi	73-75
18.	A. Yusupov	O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari	76-78
19.	M. Turg'unov	Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda ekonometrik prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish	79-83
20.	D. Мамаюсупова	Мамлакатизда давлат-хусусий шериклиги асосида туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари	84-90
21.	K. Ахмеджанов Ф. Зайниев	Аҳоли даромадлари ва харажатлари балансига жисмоний шахслар даромад солигининг оптимал таъсирини таъминлаш йўллари	91-96
Pedagogika / pedagogy			
22.	Sh. Jumanova	Peyzajning ijtimoiy - psixologik motivni anglatishdagi o'rni	97-99
23.	O. Kasimova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyati jarayonida pedagogik improvizatsiyaning o'rni	100-102
24.	B. Safarov	Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	103-105
25.	A. Тангриев	Малакали дзюдочиларни тайёрлашда буралиб улоқтириш бўйича малака тавсиялар	106-111
Lingvistika / Linguistics			
26.	D. Azimova D. Solidjonov	Learning english language as a second language with augmented reality	112-115
Qishloq xo'jaligi / Agriculture			
27.	A. Xatamov X. Jabborov	«BUXOROISHARIF» zavod tipining asosiy xususiyatlari	116-118



## MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING O'RNI

Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li

Farg'ona politehnika instituti, tayanch doktorant  
murodil.xomidov@inbox.ru,  
+998911582365

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil <b>Jurnal soni:</b> 1 <b>Maqola raqami:</b> 16 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.253">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.253</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b> innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsiya ishlari, raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisod yo'nalishlari, raqobatbardoshlik reytinglari, IT sanoati.</p>	<p>Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni sanoatga joriy etishning ahamiyati va uni iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni, bugungi kunda jamiyat farovonligi yo'li yoritilgan. Undan tashqari amaliy yondashuvlar innovatsion jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish darajasi ko'rib chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotning xalqaro miqyosda innovatsion yondashuvlari amaliyotga qay tarzda namoyon bo'lishi hamda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora tadbirlari o'rganilgan.</p>


**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarni va natijada aholimiz xayot tarzi yaxshilanib borayotganligini e'tirof etish zarur. Iqtisodiy siyosat esa keng ko'lami iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratilmoqda. Hususan, sanoat sohasi ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida chinakam rivojlanish bosqichiga olib kelindi. Ushbu tarmoq bugungi kunda yuqori texnologiyali sanoatga aylandi. Buning natijasida aholini sifatli istemol maxsulotlari bilan ta'minlash yildan-yilga ortib, aholimizning oziq-ovqat manbai ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aholi soni o'sib bormoqda, bu esa o'z navbatida aholi iqtisodiy faoliyatiga hamda sanoat korxonalarini faoliyatining kuchaytirish tadbirlariga olib kelmoqda, va nafaqat sanoatni balki respublikaning jamiki iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga olib keladi. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan

o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

Innovatsion faoliyat ulushining o'sishi shunga olib keldiki innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi mamlakatning boyligi hisoblanadi boshladi. Mamlakatimiz va uning har bir fuqarosi manfaatli yo'lida, innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishning, mamlakatimizda ko'p tarmoqli innovatsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun - qonunchilik asoslari yaratmasdan turib hech imkoni yo'q

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Shu sababdan eng songi texnologiyalarni hayotimizni barcha jabhalariga joriy etish rivojlantirishni asosiy garovi hisoblanadi. Bugungi kunda innovatsiyalarni joriy etish quyidagicha ko'rsatkichlarni qayt etmoqda. (1-rasm)



1-rasm O'zbekiston Respublikasida joriy qilingan innovatsiyalar soni<sup>42</sup>

<sup>42</sup> <https://www.stat.uz/uz/nashrlar/6436-o-zbekistonda-ilm-fan-va-innovatsion-faoliyat>

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etish darajasi mamlakatimizda 2020-yilga qadar o'sishni qayt etganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2018-yilning o'zida 2482ta innovatsiyalar amaliyotga joriy qilingan bolsa bu raqam kegingi 2019-yilda 78% ga o'sgan va ushbu yildagi qilingan texnologik innovatsiyalar soni 4011 tani tashkil etgan. Shundan, mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar soni 3017 ta, jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar soni 994 tani tashkil etgan.

Bunga asosiy sabab sifatida mamlakatimizda ushbu sohaning huquqiy bazasi takomillashtirilgani va sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalarga keng yo'l ochilganini aytishimiz mumkin. Yuqoridagi rasmga kora so'ngi 2 yilda innovatsion faollik bir muncha sekinlashgan. 2020-yilda 3.7% ga 2021-yilda esa 1.9% ga pasayish kuzatildi. Tahlillarga ko'ra buning asosiy sababi pandemiyaning yuzaga kelishi hamda xalqaro va milliy iqtisodiyotda capital oqimining sustlashuvi hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sanoatda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan innovatsion tizimlar, ularni mahalliy muhitdai amal qilish qonuniyatlari va innovatsiyalarga davlat siyosatining tarmoqlarda qo'llanilishi, klasterlar yoki mintaqalararo innovatsiyalashuv darajasi mavjudligi va ichki va tashqi omillar ta'siriga qaratilgan va bu jarayon klassik innovatsiya yondashuvlarida aks etgan.

Ammo, innovatsiyalarni joriy etilishi ko'pincha firmalar darajasida sodir bo'ladigan hodisa sanaladi. Biz ushbu tadqiqotimizda innovatsion rivojlanish masalasini makroiqtisodiy darajada tahlil qildik.

Makroiqtisodiy darajada innovatsiyaviy yondashuvlar asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to'g'ri kelgan. Innovatsiyalarni sanoatda shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan. Bundan tashqari ko'plab boshqa olimlar J.Fridman, o'z asarlarida "mintaqa sanoatining o'sish nuqtalari" nazariyasini yoritib chiqqan unga ko'ra mintaqada rivojlanayotgan sanoat nuqtalari capital va texnologiya oqimini o'ziga jalb etishda yetakchi va joriy qilishni yuqori darajaga erishadi deb takidlaydi. F.Perru, esa "mintaqaviy strategiya" M.Porter, "raqobatbardoshlik strategiyasi" M.Porter, "iqtisodiy rayonlashtirish" N.N.Kolosovskiy, "ishlab chiqarishni joylashtirish" V. Launxardt, "uzun to'liqlar" N.D.Kondratiev, "hududiy klaster" M.Enrayt, "kumulyativ o'sish" G.Myrdal, "yo'lga bog'liqlik" P.A.Devid, "sanoat rayonlari modellari" A. Marshall. Jumladan, N.D.Kondratievning uzun to'liqlar nazariyasiga asosan sanoat rivojlanishi darajasi texnologik zanjirlarning o'zgarishi va texnologik jarayonlarni qutblashuviga bevosita bog'liq hisoblanadi. Olimning fikrlariga ko'ra, texnologik zanjirlar o'zaro bog'langan ishlab chiqarish guruhlari.

Bir necha xorijiy adaboyotlarda soha innovatsion rivojlanishi va eksport o'rtasidagi ijobiy bog'likni ko'rsatishgan. Sanoatda innovatsiyalar va eksport o'rtasidagi munosabatlar nisbatan zaifligini ta'kidlagan.

Sanoat sektorining hududlar bo'yicha taqsimoti tadqiqot bo'limlari va inson kapitalining geografiasiga emas, balki sanoat yerlarining

geografiasiga shakllanishiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning nazaryasini umumiy jihati shundaki sanoat firmalari sanoat yerlari tarqoq va geografik ko'rsatkichlariga ko'ra aniq belgilab qo'yilganligi sababli kamroq zich hududlarda joylashgan. Bu esa sanoat subyektlarini sust mobilligiga ya'ni bozor va kapital oqimi munosabatlariga kirishishda sekinligi va geografik sharoitlar ularning innovatsion sig'imiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan tashqari ushbu masalalardan qamrab olingan ba'zi tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Lapple va boshqalar, va Botha va boshqalar hududlarda bilimlarning tarqalishini sanoatda innovatsion jarayonlarni rag'batlantirishdagi ro'lini ta'kidlashgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu tadqiqotdan ko'zlagan maqsadi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lgan sanoatda innovatsiyalarni joriy etishning amaliyoti va unda mavjud muammolar sabablarini tahlil qilish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni innovatsion potentsiali holatini baholash va yuqori texnologik jayaronlarni amalga oshirishgi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Innovatsiyalashuv jarayonlarini amalga oshirish va uni takomillashtirishning dunyodagi yetakchi mamlakatlari tajribasini o'rganish va mamlakatimiz potentsialiga mos tomonlarini o'zlashtirish ;

- neoindustrial rivojlanishning xalqaro tajribasining aniqlangan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiyotni raqamli o'zgartirishning joriy tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash.

- sanoatni innovatsion rivojlantirishga va ishlab chiqarishni sifat va son jihatdan yaxshilashga hizmat qiluvchi omillarni o'rganish va o'zlashtirish

Tadqiqotda omilli, tarixiy, statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari, ekspert baholash usuli qo'llanildi, bu esa muallifga qo'yilgan vazifalarni hal etish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalari.** 2021- yilda qayt etilgan natijalarga ko'ra mamlakatimizda texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni 1098 tani tashkil etgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsiyalarni joriy etishda eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida kuzatilib, 669 ta tashkilot innovatsiyalarni o'zida amaliyotga tadbiiq etgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etishda eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar:

Ishlab chiqarish sanoati – 44,2 %

Qurilish – 6,2 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 2,3 %

Axborot va aloqa – 4,2 %

Ta'lim – 1,2 %

Boshqa faoliyat turlari – 40,2%

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki hozirda eng so'ngi texnologiyalar iqtisodiyotning asosiy bog'ini bolgan ishlab chiqarishda joriy etilmoqda. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rishimiz mumkin. **(2-jadval)**

**(2-jadval). Ishlab chiqarish sanoatining texnologik tarkibi bo'yicha qo'shilgan qiymatning ulushi(% ,da)<sup>43</sup>**

	2018	2019	2020	2021
Quyi texnologiyali ishlab chiqarish	35,0	31,7	29,7	29,4
O'rta texnologiyali ishlab chiqarish(quyi darajada)	42,7	48,4	52,8	53,6
O'rta texnologiyali ishlab chiqarish(yuqori darajada)	20,7	18,0	15,4	14,2
Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	1,6	1,9	2,1	2,8

Bunga asosiy sabab sifatida sof raqobat muhiti va ishlab chiqarish sohasini bevosita ilm-fan bilan bevosita bog'liq holda faoliyat yuritishi desak mubolag'a emas. Sanoatda yaratilayotgan mahsulotlarni texnologik ko'rsatkichlariga qaraydigan bolsak 2018-yilda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi 1,6% tashkil etgan bolsa keying 3 yilda bu raqam 2,8% gacha o'sgan. Bu raqamlarga mos ravishda quyi texnologik jarayonlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35% dan 29,9% gacha pasayib bormoqda.

Ushbu ma'lumotlar oraqli shuni xulosa qilish mumkinki ishlab chiqarish sanoatida quyi texnologiyali mahsulotlar katta ulushga ega bo'lib kelmoqda. O'tgan ikki yil mobaynida bu soha yetakchilikni ushlab turibdi. Bu sohada so'ng esa o'rta-quyi va o'rta yuqori texnologiyali mahsulotlar egallagan va eng kam ulush esa yuqori texnologiyali mahsulotlarga tegishli hisoblanadi. Bu sohani eng past ulushga ega ekanligiga sabab sifatida bu sohaga investitsiyalar kam ekanligi va yuqori malakali mutahassislar kam ekanligini sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

<sup>43</sup> <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23750-qaysi-yo-nalishdagi-korxonava-tashkilotlar-ko-proq-innovatsiyalarni-joriy-etgan>

**Muxokama.** Mamlakatimizda ishlab chiqarishni jarayonlarida innovatsiyalar, ularni joriy etish mustahkam iqtisodiy va huquqiy poaydevorga ega, biroq boshqa tomondan, ular zamonaviy dunyo sanoat inqilobining rivojlanishining talablari, ko'rsatkichlari va vazifalari ma'lum darajada mos kelmaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda sanoat sohasida innovatsiyalarni joriy etish uchun sarf etilayotgan mablag'lar yildan yilga oshib bormoqda, albatta bu yaxshi ko'rsatkich lekin yaratilgan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan

harajatlarning deyarli 63% korxonaning tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi. Innovatsiyalarning ushbu usulda yaratilishi ko'rxonada ishlab chiqarish harajatlarini oshirib yuboradi va natijada esa mahsulot tannarxini ko'tarishiga olib keladi. Har bir harajatlari oshgan korxonada esa tovar va xizmatlardan qoladigan foyda darajasini o'zgartirishga olib keladi. Bu bo'yicha ma'lumotni 3-jadvalda ko'rish mumkin.

3-jadval

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar(mln. so'm, da)<sup>44</sup>**

	2018	2019	2020	2021
tashkilotning o'z mablag'lari	2959428	3342925	4764543	15777060
chet el investitsiyalari'	307078,5	1083650	605731,5	242753,4
tijorat banklari kreditlari	501542,4	1060055	970973,2	806754,6
boshqa mablag'lar	939162,6	1116844	488720,8	854221,2
Jami	4707212	6603475	6829969	17680789

O'tgan yillar davomida mamlakatning rivojlanish strategiyasiga asosan innovatsiyalarga juda katta etibor berildi va buning natijasi o'laroq bu sohaga mablag'lar oqimi keskin oshdi. Yuqoridagi jadvalda korxonalar o'z moliyaviy resurslarini investitsion jarayonlarga sarf etish ko'rsatkichini 4 yil davomida qariyb 5 barobarga ishirgan. Hususan tijorat banklari kreditlari ham mos ravishda 60% ga ko'proq mablag' ajratganini ko'rishimiz mumkin. Lekin xorijiy investitsiyalar va boshqa manbalardan keluvchi moliyalashtirish oqimi 21% va 10.1% ga kamaygan.

Bu jarayon esa bozordagi istemolchilarga ortiqcha yuk olib kelgan holatdan istemol darajasini tushirishga sharoit yaratadi. Bu hodisaning umumiy foni esa mamlakatda istemol darajasini o'zgarishiga olib keladi. Umumiy manoda ishlab chiqarish ham bu o'zgarishga o'z reaksiyasini bermay qolmaydi. Shuning uchun ko'plab xorijiy korxonalar innovatsiyalashuvni qulay yoldan borishni afzal ko'radi. Jumladan qoshimcha moliyaviy kapitallar portfel investitsiyalar, aksiyalarni bozorga jalb etish yoki kreditlar hisobiga texnologik rivojlanadilar.

#### Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari zamonaviy tamoyillari asosida neoindustrial rivojlanishga o'tmoqda, uning asosiy mazmuni ishlab chiqarish tarmoqlarini kiberjismontiy raqamlashtirishdir. Shunday qilib, yangi texnologik tuzilmani shakllantirish, neoindustrializatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va xavflari ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilishning kechikishi bilan chambarchas bog'liq.

Sanoat tarmog'ining innovatsion rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy tayanch nuqtasi ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Jumladan, sanoat yalpi qo'shilgan qiymati yillik o'sish sur'atining 1 foizga ortishi respublika YaIM yillik o'sish sur'atining qo'shimcha 1,02 foizga o'sishini ta'minlash imkoniyatini beradi bu natijaga erishishda yuqori samarador texnologiyalar muhim ro'l o'ynaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilmiy va innovatsion siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: mamlakat iqtisodiyoti rivojida fan va texnika ulushini oshirish; moddiy ishlab

chiqarish sohasining progressiv rivojlanishini ta'minlash; jahon bozorida milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish; mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; ekologik muhitni yaxshilash; mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va rivojlantirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat korxonalarini yuridik va iqtisodiy erkinlashtirish va ular uchun xorijiy korxonalar bilan samarador hamkorlik koridorini ochish hozirdagi innovatsion strategiyamizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekologik xususiyatlari va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sanoatdagi tuzilmaviy va tashkiliy masalalar uchun uchun dasturiy ta'minotini shakllantirish (veb-bazaga asoslangan ma'lumotlarni qayta ishlash)
- raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun uskunalar (oziqlantirish, texnik xizmat ko'rsatish, mikroiklimni tartibga solish, sog'ish, hayvonlarning holati va hayotiyfaoliyatini nazorat qilish)
- sanoat chiqindilarini qayta ishlash va bu tarmoqqa xizmat qiluvchi tarmoqlar faoliyatini rag'batlantirish;
- ayrim tabiiy resurslardan foydalanishni oqilona me'yorlarini belgilash
- raqamli texnologiyalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib borish.
- barcha darajadagi tashkilotlarda davlat sherikchilik asosida qo'shma moliyalash shartlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish.
- Innovatsiyalarni yaratuvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalar sarmoya kiritgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari taqdim etish.
- tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan ularga kerakli texnika texnologiyalarni import qilish uchun ko'maklashuvchi infratuzilma yaratish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Babkin A V, Burkaltseva D D, Kosten D G and Vorobiev Yu N 2017 Formation of the digital economy in Russia: essence, features, technical normalization, development problems. Scientific and Technical Sheets of SPbSPU. Economic sciences. 10 3 9-25
2. Brown, B., Sikes, J., & Willmott, P. (2013). Bullish on digital: McKinsey global survey results. McKinsey Quarterly, 12, 1-8.
3. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF 607-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni

4. Bruno, G., Esposito, E., Genovese, A., & Gwebu, K. L. (2011). A critical analysis of current indexes for digital divide measurement. The Information Society, 27(1), 16-28.
5. Kodirov, S. (2020). Some issues of digitalization in the industrial sector of the economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(92), 377-384.
6. Kodirov, S. (2021). Issues of business cooperation in the national economy of Uzbekistan. Экономика и социум, (7), 79-88
7. Yudina O. N. Formation of the potential of an innovation-oriented small enterprise, taking into account the strategic direction of its development. Creative Economy. 2016; 10 (3): 16-19.

<sup>44</sup> <https://www.stat.uz/uz/nashrlar/6436-o-zbekistonda-ilm-fan-va-innovatsion-faoliyat>

8. Kurpayanidi K. I. Institutional conditions for the development of entrepreneurship in the context of the transformation of the national economy // Economic innovations. – 2022. – T. 24. – №. 3 (84). – С. 67-76.

9. Kurpayanidi K. I. Digital economy as a factor of activation of foreign economic activity // Scientific-technical journal – 2022. - T. 26. – №. 11-C. 129-133.

10. Mazilov E.A. Development of the industrial complex in the context of modernization of the regional economy. Vologda: ISERT RAS, 2015: 115-116.

11. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64..



**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**1 / 2023**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.



OJS  
OPEN  
JOURNAL  
SYSTEMS

